

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

<b>X.Mamajonov</b>	
Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtaсидаги дипломатик муносабатларнинг манбашунослигига доир айрим фірмалуҳазалар .....	113
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK</b>	
<b>X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova</b>	
Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari .....	118
<b>A.Abduraxmonov</b>	
Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati .....	122
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	127
<b>N.Karimova</b>	
Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi .....	134
<b>P.Ro'ziboyeva, B.Karimov</b>	
Abdulhamid Cho'lon hikoyalarda ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi .....	138
<b>N.Avazov</b>	
"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi.....	143
<b>Sh.Axmedova</b>	
Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari.....	151
<b>N.Soatova</b>	
Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati .....	155
<b>Sh.Turg'unov</b>	
Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida .....	162
<b>TILSHUNOSLIK</b>	
<b>Sh.Iskandarova, F.Musayeva</b>	
Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir.....	168
<b>D.Ganiyeva</b>	
Turli tizimdagи tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunktionalligi.....	171
<b>Sh.Amonturdiyeva</b>	
Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari.....	176
<b>N.Xoshimova</b>	
Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi .....	184
<b>M.Hojiyeva</b>	
Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning асоси сифатида .....	187
<b>V.Giyosova</b>	
Bolalarga oid murojaat birliklariga doир mulohazalar .....	190
<b>S.Ahmadaliyeva</b>	
Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida.....	193
<b>H.Saipova</b>	
Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari .....	197
<b>MATEMATIKA</b>	
<b>T.Ergashev, D.Urinboyeva</b>	
Ikkinchи tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida.....	201
<b>B.Kadirkulov, M.Jalilov</b>	
Involyutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagи tenglama uchun qо'yilgan teskari masala .....	209
<b>N.Murolimova</b>	
Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lgin tenglamasi uchun chegaraviy masala .....	214
<b>FIZIKA - TEXNIKA</b>	
<b>X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov</b>	
Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	223
<b>M.Abdullahayeva, Sh.Shuxratov</b>	
Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishnig pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	228

## ERGONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЭРГОНИМОВ

## LEXICO-SEMANTIC PROPERTIES OF ERGONIMS

**Maxsudova Xolisxon Ummatovna<sup>1</sup>, Shahobiddinova Shohida Hoshimovna<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>**Maxsudova Xolisxon Ummatovna**

– Andijon mashinasozlik instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi, tayanch doktoranti.

<sup>2</sup>**Shahobiddinova Shohida Hoshimovna**

– Andijon davlat universiteti Professori.

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada faoliyat yuzasidan uyushgan kishilar jamoasi, shuningdek, muassasa, tashkilot va korxonalar atoqli oti bo'lgan ergonimlar haqida so'z boradi. Ergonimlar universal onomastik xususiyatlar bilan bir qatorda, uni alohida guruha ajratish imkonini beradigan o'ziga xos jihatlarga ega. Ergonomik tizim ko'p jihatdan davlat tomonidan tartibga solishga bog'liq. Yangi ergonimlarni shakllantirishda leksik-semantik usul eng samarali hisoblanadi. Bu usuldan foydalanganda tanish so'z va birikmalar o'z ma'nosida qo'llanadi. Zamonaviy ergonomika "nominal portlash" holatini boshdan kechirmoqda. Ergonimlardagi leksik-semantik shakllanish usullarining uchta kichik turi mavjud: semantik nomlash, transonimizatsiya va so'z o'zlashtirish.*

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются сообщества людей, которые организованы в плане деятельности, а также эргономики, которые носят известное название учреждений, организаций и предприятий. Эргономика, помимо универсальных ономастических признаков, обладает уникальными чертами, позволяющими выделить ее в отдельные группы. Эргономическая система во многом зависит от государственного регулирования. Лексико-семантический метод наиболее эффективен при образовании новых эргонимов. При использовании этого метода используются знакомые слова и словосочетания в их значении. Современная эргономика переживает состояние «номинального взрыва». Различают три подвида лексико-семантических способов образования эргонимов: семантическое называние, трансонимизация и словообразование.

**Abstract**

*This article discusses the community of people who are organized in terms of activities, as well as ergonomics, which are the famous name of institutions, organizations and enterprises. Ergonomics, in addition to universal onomastic features, have unique features that allow it to be divided into separate groups. The ergonomic system depends in many ways on government regulation. The lexical-semantic method is the most effective in the formation of new ergonims. When using this method, familiar words and phrases are used in their meaning. Modern ergonomics are experiencing a "nominal explosion" state. There are three subtypes of lexical-semantic formation methods in ergonims: semantic naming, transonimization, and word acquisition.*

**Kalit so'zlar:** ergonimlar, muassasa, tashkilot va korxonalar atoqli oti, tabiiy va sun'iy, semantik nomlash, transonimizatsiya va so'z o'zlashtirish.

**Ключевые слова:** эргонимы, учреждение, название организации и предприятия, естественное и искусственное, семантическая номинация, трансонимизация и словообразование.

**Key words:** Ergonims, institution, organization and enterprise name, natural and artificial, semantic naming, transonimization and word acquisition.

**KIRISH**

Tilshunoslikda onomastikaning doimiy o'zgaruvchan va kengayib borayotgan sohasi bo'lgan ergonimlar – korxona, tashkilot, muassasa, jamoat birlashmalari, savdo va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining nomlari masalasiga qiziqishning kuchayishi 1990-yillarning boshlarida, postsoviet respublikalari bozor munosabatlariiga o'tgan paytdan boshlandi, bu esa bozor raqobati va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan reklamaning kuchayishiga olib keldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ergonim atamasi birinchi marta N.V.Podolskaya tomonidan muomalaga kiritildi va deyarli barcha o'rinnlarda mana shu olma tavsiya etgan izohdan foydalaniib kelinmoqda: "Ergonim – onimlar tarmog'i. Odamlarning rasmiy birlashmasi, jumladan, uyushma, tashkilot, muassasa, korporatsiya, korxona, jamiyat, muassasa, to'garakning o'ziga xos nomi" [7:167]

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**Ergonim** – yunoncha ērgón – “ish, faoliyat, ijod” va ōmona –“nom” so‘zlaridan olinib [12], faoliyat yuzasidan uyushgan kishilar jamoasi, shuningdek, muassasa, tashkilot va korxonalar atoqli oti [1:40].

G.Y.Sizranovaning “Onomastika” o‘quv qo‘llanmasida korxona, muassasa, jamiyatlar va boshqalar tarzida alohida guruhlangan bo‘lsa-da, bu mikroguruhga nisbatan “ergonim” atamasi qo‘llanmagan [9:37].

Ergonomlar universal onomastik xususiyatlar bilan bir qatorda, uni alohida guruhga ajratish imkonini beradigan o‘ziga xos jihatlarga ega:

- 1) yuqori darajadagi dinamizm;
- 2) tahlil qilinadigan lug‘at guruhining iqtisodiy, ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ishlashi uning tez-tez ommaviy qo‘llanilishini ta’minlaydi;
- 3) nomlarning bevosita lug‘aviy ma’nosida ham, paydo bo‘lgan assotsiatsiyalarida ham ergonimlarning yuksak milliy va madaniy salohiyati aks etadi;
- 4) madaniyatlararo muloqotda ergonimlar o‘ziga xos qo‘llanilish xususiyatlariga ega (tarjima, interferensiya va boshqalar);
- 5) potensial iste’molchining e’tiborini jaib qilish uchun unga samarali ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus semantikaga asoslanadi, shuning uchun ergonimlarning asosiy vazifalaridan biri motivatsiya funksiyasidir [4:124,137].

*Ergonomik tizim ko‘p jihatdan davlat tomonidan tartibga solishga bog‘liq. Zamonaviy ergonomika "nominal portlash" holatini boshdan kechirmoqda: doimiy ravishda yangi murakkab obyektlar (korxonalar, tashkilotlar, sayyohlik agentliklari, do‘konlar, go‘zallik salonlari va boshqalar) paydo bo‘lib, ular individual nomlarni oladi va eski nomlar zamon ruhiga mos keladigan yangilar bilan almashtiriladi [4:31].*

Shunday ekan, tilshunoslikda ergonimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi.

Ergonimlar haqida so‘z borar ekan, dastlab tabiiy va sun’iy nominatsiya xususida fikr yuritish zarur bo‘ldi. “Ergonimlar, asosan, lug‘at boyligini to‘ldirishga qaratilgan maqsadli nomlanish nazarda tutilgan sun’iy nominatsiya doirasini bildiradi.” [8:80]

O‘zbek tilshunosligida nomlash jarayonining bu jihatiga deyarli e’tibor qaratilmagan. Sun’iy nomlash tushunchasi, asosan, toponimika doirasiga xos jihat bo‘lib, an’anaviy-tarixiy geografik (tabiiy) nomlar bilan zamonaviy o‘zgaruvchan (sun’iy) nomlarni farqlash uchun qo‘llanadi. M.V.Golomidovaning “Iskusstvennaya nominatsiya v russkoy onomastike” (“Rus onomastikasida sun’iy nomlash”) monografiyası yaratilganligi tabiiy va sun’iy nomlash masalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan til hodisasi ekanligidan dalolat beradi. M.B.Golomidova atab qo‘yilgan nomlarning bu tarzda ajratilishi nisbiy tushuncha bo‘lib, til va subyekt munosabati asosidagi murakkab ichki qonuniyatlar natijasi o‘laroq yuzaga kelganligini tahlil qiladi.

“Sun’iy nominatsiya” iborasidagi “sun’iy” ta’rifini “sun’iy intellekt” yoki “sun’iy tillar” atamalari atributlari bilan tenglashtirish mumkin. “Sun’iy” so‘zi termin sifatida “tom ma’noda sun’iy” yoki “g‘ayritabiyy” degan ma’nolarni anglatmaydi. Ilmiy metodologiya qonuniyatiga ko‘ra, “sun’iy” tushunchasi faoliyat kategoriysi sifatida tabiiy bilan bog‘liq.[2:30]

Filosof olim B.M.Kedrov ta’rifiga ko‘ra, “Amaliy faoliyat sohasida “tabiiy”lik tushunchasi o‘z-o‘zidan, tabiatan shaxs ishtirokisiz odamga berilishi bilan mos keladi. “Sun’iy” - bu inson tomonidan “tabiiy”dan o‘z manfaatlari, ehtiyojlari bilan bog‘liq holda ongli (texnik) ravishda tayyorlangan narsa. Shuning uchun, “sun’iy” narsa g‘ayritabiyy emas, u “tabiiy” bilan bir xil, lekin o‘ziga xos qonuniyatlariga ko‘ra o‘zgargan, ya’ni tasodifiy, ongsiz ravishda emas, balki shaxs tomonidan oldindan belgilab qo‘yilgan maqsad bilan tanlangan.”[3:31]

Demak, tilshunoslikda “sun’iy”lik tushunchasining qo‘llanilishi universal kategoriya sifatida muayyan til birliklarini ongli, maqsadli ravishda nutqiylar faoliyatda qo‘llash, tilning tabiiy qonuniyatlariga tayangan holda yangi birliklarni tartibga solish, kodifikatsiyalash tushuniladi. Ana shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, sun’iy ravishda yaratilgan yangi atoqli otlar orasida “uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida xalq amaliyotida shakllangan nomlardan aniq farq qiladiganlariga e’tibor qaratiladi”[2:32].

M.B.Golomidovaning tadqiqiga ko'ra, onomastikada sun'iy nomlashga nisbatan quyidagi xususiyatlar qayd etilgan:

- "ixtiyoriyligi" (E.M.Murzayev 1979, 180);
- aniq ijtimoiy-mafkuraviy yo'nalganligi (V.D.Belenkaya 1969, 89);
- odob-axloq qoidalariga mos kelishi, maqsadliligi (G.P.Smolitskaya, M.V.Gorbanevskiy 1982, 43-45). [2:30]

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi ergonimlarni shakllantirishda leksik-semantik usul eng samarali hisoblanadi. Bu usuldan foydalanganda tanish so'z va birikmalar o'z ma'nosida qo'llanadi. Masalan, "Eshik va romlar" (do'kon), "Ko'z kasalliklari" (shifoxona), "Soatsozlik" (ustaxona), "Kaboblar" (oshxona) kabilar.

Onomastikada boshqa onimlar qatori ergonimlarda ham leksik-semantik shakllanish usullarining uchta kichik turi mavjud: semantik nomlash, transonimizatsiya va so'z o'zlashtirish.

Semantik nomlashda metafora va metonimiya usullari orqali so'zni ko'chma ma'noda qo'llash nazarda tutiladi.

**Metaforik nomlash:** "Baraka" (do'kon), "Orxideya", "Guldasta", "Malika" (Go'zallik saloni), "Fantastika" (kinoteatr), "Ziyo maskani" (kutubxona), "Diyonat" (shifoxona) kabilar.

**Metonimik nomlash:** "Kardiologiya" (tibbiy markaz), "Sarpo", "Tilla", "Mebel" (do'kon), "Istambul" (kafe) kabilar.

**Transonimizatsiya.** Transonimizatsiya deganda atoqli otlarning bir turdan ikkinchi turga ko'chib o'tishi tushuniladi. Transonimizatsiya turli toifadagi onimlarning yaqin aloqasini tasdiqlaydi. U apellyativlarni onimlashtirish va boshqa tildan o'zlashtirish usullari bilan bir qatorda onim yasashning mahsuldar leksik-semantik usullaridan biri hisoblanadi. Onomastik nomni sun'iy, ijodiy yaratish, jumladan tayyor onimlar, ya'ni allaqachon mavjud til modellaridan foydalanish samarali usulga aylanmoqda.[6:43,49] O'zbek tiliga xos ergonimlarni shakllantirishda, xususan, anroponim va toponimlarni qayta qo'llash keng tarqalgan. Masalan, "Alisher Navoiy", "Cho'pon", "Uvaysiy" (kinoteatr), Muqimiy nomli (teatr), "Turkiston" (san'at saroyi), "Toshkent", "Afrosiyob" (mehmonxona) kabilar.

**O'zlashma so'zlar.** Madaniy-ma'rifiy tushunchalarning o'zgarishi, shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayoni ta'sirida ergonim va ideonimlarning, asosan, o'zlashma so'zlar hisobiga tubdan o'zgarishi va kengayishi kuzatilmoxda. Bu esa "zamonaviy shaxsning nom ijodkorligi, jamiyatning ma'lum bir tarixiy davrdagi qadriyat yo'nalishlari va boshqalar haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi." [5:34] Biroq, bozor iqtisodiyoti talabi bilan cheksiz paydo bo'layotgan peshlavhalar, PR va reklama bannerlarida yozilayotgan matnlar, xususan, alohida ajratib ko'rsatiladigan ergonimlarda tilga hurmat bilan yondashish uning sofligini saqlash, yosh avlod ruhiyatida tilga muhabbatni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Aksariyat hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ta'sischiligidida tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxclar boshqa tillardan olingen so'zlar asosida firma nomini tanlab ro'yxatdan o'tish holatlari kuzatilmoxda. Masalan, hozirgi kunda Respublika miqyosida "**group**" (tarjimasi – guruh) so'zi ishtirok etgan 8553 ta, "**grand**" (tarjimasi – yuqori) so'zi ishtirok etgan 3766 ta, "**golden**" (tarjimasi – oltin) so'zi ishtirok etgan 1997 ta, "**city**" (tarjimasi – shahar) so'zi ishtirok etgan 1696 ta mahalliy korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.[11]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sон Farmoniga ilova qilingan "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi"da "Savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlariga o'zbekcha nom qo'yishning normativ-huquqiy asosini shakllantirish" zarurligi belgilab qo'yilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.03.2021 yildagi "Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish" chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144–son Qarorida "obyektlarga nom berish "Davlat tili haqida", "Firma nomlari to'g'risida" va "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari talablariga rioya etilgan holda amalga oshirilishi" belgilab qo'yilgan bo'lsada, bu boradagi ishlarda qat'iylik yetishmaydi hamda sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda. Bizningcha, "EduCare", "Abu Dhabi Global" (o'quv markazi)"Stella brend shop", "Fast food", "Meat Voutique",

## ADABIYOTSHUNOSLIK

“Book store Yasira” (do‘kon) kabi aholi uchun tamoman tushunarsiz ajnabiy nomlarni qo‘yish tilga hurmatsizlik belgisidir.

**XULOSA**

Kuzatishlarimiz va tahlillarimiz asosida ergonimlar guruhi quyidagicha tasnifi mavjudligi tadqiq etildi:

Ergonom turi	Nomi
Tashkilot:	Shahar hokimligi
Muassasa: - bank - tibbiy muassasa - ta’lim muassasasi - kutubxona - mehmonxona	
Korxonalar: - zavod - fabrika - firma - ustaxona	
Agentlik	Davlat xizmatlari agentligi
Kinoteatr	“Nodira”
Teatr	Muqimiy nomli
Sport inshooti	“Bunyodkor” stadioni
Do‘kon	“Ishonch”
Oshxona, kafe, restoran kabilar	“Ko‘hinur”, “Karamel”, “Bir zumda”

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. T.:Fan,2013. ( Begmatov E. Anthroponymy of the Uzbek language. T.: Fan, 2013)
2. Голомидова М.В. Искусственная номинация в русской ономастике. Монография. Екатеринбург, 1998. (Golomidova M.V. Artificial nomination in Russian onomastics. Monograph. Yekaterinburg, 1998)
3. Кедров Б.М. “Естественное” и “искусственное” в познании и деятельности человека // Вопросы философии. 1958. № 11. – С. 31 //<https://djvu.online/file/MNSdmznzDo8LZ> (Kedrov B.M. “Natural” and “artificial” in human cognition and activity // Questions of Philosophy. 1958. No. 11. - P. 31)
4. Крыжановская В.А. Эргонимы с элементами графической трансформации: структурно-семантический и pragmaticальный аспекты. Дисс...канд.филол. наук. Краснодар, 2017. (Kryzhanovskaya V.A. Ergonyms with elements of graphic transformation: structural-semantic and pragmatic aspects. Diss...candidate of philology. Sciences. Krasnodar, 2017).
5. Мадиева Г.Б., Супрун В.И. Теория и практика ономастики. Учебное пособие. Алматы: Қазакуниверситеті; Волгоград: Изд-во ВГСПУ «Перемена», 2015. – С. 34 (Madieva G.B., Suprun V.I. Theory and practice of onomastics. Tutorial. Almaty: Kazakh University; Volgograd: VGSPU publishing house "Change", 2015. - P. 34)
6. МорадиА. Трансонимизация в названиях объектов торгового и ресторанных бизнеса г.Харькова // Русская филология: Вестник Харьковского НПУ имени Г.С. Сковороды. – 2017. – № 1 (60), - С. 43-49. (MoradiA. Transonymization in the names of objects of trade and restaurant business in Kharkov // Russian Philology: Bulletin of the Kharkiv NPU named after G.S. Frying pans. - 2017. - No. 1 (60), - P. 43-49)
7. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1978. (Podolskaya NV Dictionary of Russian onomastic terminology. Moscow: Nauka, 1978)
8. Позднякова Е.Ю. Принципы и способы номинации коммерческих объектов городского пространства//<https://cyberleninka.ru>. (Pozdnyakova E.Yu. Principles and methods of nomination of commercial objects of urban space // <https://cyberleninka.ru>)
9. Сызранова Г.Ю. Ономастика: учеб.пособие / Г.Ю. Сызранова. – Тольятти : Изд-во ТГУ, 2013. (Syzranova G.Yu. Onomastics: textbook / G.Yu. Syzranov. - Tolyatti: Publishing House of TSU, 2013.)
10. Тортунова И.А. Эргоним как результат речетворчества // Научный диалог. – 2012. – № 3. – Филология. – С. 124–137. (Tortunova I.A. Ergonym as a result of speech creation // Scientific dialogue. - 2012. - No. 3. - Philology. – pp. 124–137)
11. <https://davxizmat.uz/uz/news/firmalarga-davlat-tilida-nom-berish>
12. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A8%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BC#>